

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Yaponiya va Italiyada koronavirus avj olgani sababli Tokio va Rimga bo'lgan ikkala yo'nalishdagi qatnovlarining vaqtincha to'xtatdi

2020 2 Mart

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi 2020-yilning 1-martidan boshlab Yaponiya va Italiyada koronavirus avj olishi va O'zbekiston hududida virus tarqalishining oldini olish maqsadida Tokio va Rimga bo'lgan ikkala yo'nalishdagi qatnovlarining vaqtincha to'xtatilishi haqida xabar bermoqda.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda aviakompaniyaning barcha reyslarda yuqori xavfsizlik choralarini joriy etilgani, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini kesib o'tuvchi shaxslar sanitariya-karantin tadbirlari va tibbiy-sanitariya nazoratlaridan o'tkazilayotganligi haqida eslatib qo'ymoqdamiz.